

TILNI O`QITISH VA O`RGANISHDA XXI ASR KO`NIKMALARI

Qo`shboqova Nodira

Oliy toifali ingliz tili fani o`qituvchisi

Annotatsiya: XXI asrga kelib, zamonaviy texnologiyalar rivojlanmoqda va ilmfanda ham rivojlanish yuqori darajada sezildi, jumladan, eng so'nggi pedagogik texnologiyalar va metodikalar va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqildi va tatbiq qilindi. Albatta, XXI asr tilni o'qitish va o'rganishni zamonaviy texnologiyalar tez va oson o'zlashtirishni ta'minlab bermoqda. Eng so'nggi innovatsion texnologiyalar nafaqat an'anaviy ta'lim jarayonida balki mustaqil ta'lim yoki onlayn ta'limda ham o'qituvchi va o'quvchilarga yangilik yaratmoqda.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, interfaol usul, aralash metod, to'g'ri metod, audiovizual metod, audiolingual metod, "Zig-Zag" metodi, "Videotopishmoq" metodi

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz O'zbekistonda ham chet tilini o'rganish va o'rganish davr talabiga aylandi. Hozirgi globallashtirish jarayonida chet tilini o'rganish va ularning madaniyatini o'rganish millatlarni birlashtirib, hamkorlikka olib keladigan bir ko'prik vazifasini o'tamoqda. Yurtimizda tilni o'rganish va o'rgatishga talab kuchaygani sababli, chet tili professor o'qituvchi va olimlari juda ko'plab yangi innovatsion pedagogik ko'nikmalar va texnologiyalar va yangidan yangi metodik qo'llanmalar ishlab chiqishdilar va ishlab chiqishmoqda va shuningdek chet el ta'lim tizimidan ham namunalar olib ta'lim sohasida tatbiq etishmoqda va bu esa tilni oson va tez o'zlashtirishini ta'minlab bermoqda.

Chet til o'qitish metodi – chet tili o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishuvini ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasidir.

Innovatsion texnologiya – taʼlim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qoʻllash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi taʼlim jarayonida oʻqituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, oʻzgartirishlar kiritish boʻlib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol metodlar taʼlim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashgʻulotga aylanadi. Interfaol usullar qoʻllanilganda mustaqil ishlash koʻnikma va malakasi rivojlanadi. Bahslar – oʻquv guruhlarini ikki guruhga boʻlgan holda biror mavzu boʻyicha oʻzaro bahs – fikr almashinuvi tarzida oʻtkaziladi. Muzyorarta taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilar orasida toʻsiqni yoʻqotishga qaratilgan.

“Zig – Zag” metodi – oʻquvchilar bilan ishlash, mavzuni tezkor va puxta oʻzlashtirishga xizmat qiladi; oʻquvchilarda jamoa yoki guruh boʻlib ishlash koʻnikmasi; vaqt tejiladi. “Videotopishmoq” metodi – soʻnggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari yordamida taʼlim jarayoni tashkil etilishiga alohida eʼtibor qaratilmoqda, oʻqituvchilar oldida taʼlim jarayonida turli axborot vositalaridan oʻrinli va maqsadga muvofiq foydalanish turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- oʻquvchilar eʼtiboriga oʻrganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videoloyiha namoyish etiladi;
- oʻquvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini qayd etadilar;
- oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarga javob beradilar.

Toʻgʻri metod nomining kelib chiqishiga asosiy sabab shuki, toʻgʻri metodda oʻqitish chogʻida ona tilini chetlab oʻtib chet til soʻzi bilan predmet orasida bevosita assotsiatsiya, yaʼni fikran bogʻlanish oʻrnatishga urinib koʻrilgan. Chet til grammatikasini oʻrgatishda ham huddi shunday metodik yoʻl tutilgan; grammatik maʼno bilan shakl oʻrtasida bevosita bogʻlanish hosil qilmoqchi boʻlishgan. Toʻgʻri metodning dunyoga kelish sababini chet tillarni amaliy oʻrganish maqsadidan qidirish joizdir. Oʻtgan asrning oxirlariga kelib,

Garbiy Evropa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida chet til o'qitishni isloh qilish natijasida ushbu metod kashf etilgan. Keyinchalik bu metod -Osiyo, Afrika va boshqa yurtlarga ham tarqalgan.Ona tili ishtirokisiz chet tilini o'rgatishga intilishlarni to'g'ri metod, induktiv metod, tabiiy metod kabi atamalar bilan yuritila boshlangan. Ushbu metodlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad chet tilni amaliy jihatdan o'rgatishdir. Ona tilini o'rganish shart -sharoitlari bu metodda o'zgarishsiz qabul qilina bergan.To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishlaridan ikkitasi - audiolingual va audiovizual metodlari ko'p tarqalgan. Audiolingual metodning asoschilari (mashxur Amerika metodistlari Chariz Karpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan chet til amaliy va ta'limiy maqsadda o'rganiladi. Til materiallaridan chet til jumalari (nutq namunalari)ni tanlash va o'rgatishga muhim o'rin beriladi. Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tushunish, gapirish, - o'qish - yozuv. Og'zaki nutq chet tilda aloqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og'zaki nutq materiali asosida o'rgatiladi.Muallimlar audiolingual metodning bir qancha ijobiy xossalarini maktab tajribasidan biladilar. Chunonchi, nutq namunalarining til o'rgatish birligi darajasiga qo'lanilishi, og'zaki nutqning ilgarilashi, og'zaki nutqning materialida o'qish va yozuvning o'rgatilishi V-VII sinflarda tegishli o'zgarishlar bilan qabul qilingan.Audiolingual metodning ayrim qonuniyatlari bizning sharoitga to'g'ri kelmasligi maktab darsliklariga hisobga olingan. Masalan: nutq namunalari ong ishtirokisiz va hech qanday qoidalar berilmasdan o'rgatish undagi g'ayri ilmiy ko'rsatmalardir. Aktiv va passiv til materialini farqlagan holda ularning o'zlashtirishiga, befarq qarashadi. Bu ham noto'g'ri metodik yo'l-yo'riqdir.Audiolingual metoddan qator jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod nomoyondalari (P.Guberina, P.Rivan) metodik ko'rsatmalariga binoan leksik materialni an'analariga alohida e'tibor berilgan. Hayotiy mavzularda erkin fikr yuritish uchun 1500 so'z tanlangan, turli texnikaviy vositalarga ta'lim jarayonida katta o'rin beriladi.Ikkala metodning

umumiylikidan tashqari tafovutlari ham bor. Masalan, audiovizual metodda ogʻzaki nutq, yozuv va oxirgi navbatda oʻqish oʻrgatiladi. Oʻqish yozuvdan keyin oʻrgatiladi, Bizning maktablarda ushbu metodlaridan ijobiy foydalaniladi. Oʻrta maktabda birinchi yillari chet tili oʻqitishda yozuv oʻqishdan oldin, keyinchalik esa oʻqish yozuvdan oldin va yuqori sinflarda oʻqish barcha nutq faoliyati turlaridan oldin oʻrgatiladi. Toʻgʻri metodlarning reprodaktiv va retseptiv tarzida chet til oʻrgatish metodlari ham metodika tarixida sezilarli iz qoldirgan. Aralash metod - ikki katta metodik yoʻnalishlarning ilmiy-amaliy tomonlarini oʻziga singdirib olgan, Aralash metodlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida tarjima va toʻgʻri metodlar qorishmasi sifatida vujudga keldi. Aralash metod haqida uning nomoyondalari Daniyalik ruxshunos K.Flagstad, nemis tilshunosi E.Otto, nemis metodisti F.Aronshteyn, nemis tilshunosi G.Paul kabilarning ilmiy ishlaridan maʼlumotlar olish mumkin. Aralash metodning yana bir boshqacha koʻrinishi toʻgʻri metod va qiyosiy metod printsiplarining qorishmasi sifatida vujudga keldi. Ushbu zamonaviy aralash metodning nomoyondalari metodistlar Amerikalik H. Xenbold, Belgiyalik F.Klossa, Germaniyalik A.Bolen va rus chet til oʻqitish ruxshunosi R.B.Beliyev tadqiqotlaridan maʼlum va mashxurdir.

Hozirgi kunda taʼlim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qoʻllashga boʻlgan qiziqish kundan – kunga ortib bormoqda, bunday boʻlishiga sabablardan biri shu kungacha taʼlimda oʻquvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik vazifasini bajaradi, taʼlim oʻquvchi va talabalar manfaatiga yoʻnaltiriladi. Taʼlim sohasidagi tajribalar shundan dalolat beradiki, yangi pedagogik texnologiyalar, ularni oʻz oʻrnida qoʻllash hozirgi zamon taʼlim jarayonini sifat bosqichiiga olib chiqishda zarur boʻlgan metod deb tan olingandir.

ADABIYOTLAR

1. `Chet tili o`qitish metodikasi`, Sh. Alimov, A. Ismoilov, Andijon
2. `Ingliz tili o`qitish metodikasi`, J. Jalolov, O`qituvchi, Toshkent
3. `XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o`rni `mavzusidagi respublika ilmiy 4-onlayn konferensiyasi materiallari, Toshkent, Tadqiqot, 2019
4. `Madaniyataro muloqot`, Sh. Usmonova, G. Rixsiyeva, Toshkent, 2017
5. `Chet tili o`qitish metodikasi`, Sh. Alimov, A. Ismoilov, Andijon, 2017
6. `Tilshunoslikdagi zamonaviy yo`nalishlar: muammo va yechimlar`, Andijon, Onlayn Xalqaro Ilmiy – Amaliy Konferensiya`, 2020
<http://conference.adu.uz>
7. `Chet tili o`qitish metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar`, Namangan, 2018
8. Innovations in learning technologies for English language teaching`, Gary Motteram, British Council, 2013